

O'zbek tili va adabiyoti

5111200 - O'zbek tili va adabiyoti - umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisini tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

5111200 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifi

4.1 Bakalavrning kasbiy faoliyat sohasi

5111200 – O'zbek tili va adabiyoti – umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisini tayyorlash jarayonida foydalaniladigan fanlar, pedagogik faoliyat vositalari, usullari, metodlari yig'indisidan iborat bo'lgan ta'lim yo'nalishidir.

4.2 Bakalavrlarning kasbiyfaoliyati obyektlari

5111200 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishibakalavrlarning **kasbiy faoliyati obyektlari** – umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, o'quvchilar, o'quv-tarbiya jarayoni, o'qitishning pedagogik texnologiyalari va metodlari, o'zbek tili va adabiyoti, arab grafikasi.

4.3 Bakalavrlarning kasbiy faoliyati turlari

5111200 – O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr o'z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlarini yuritishi mumkin:

- o'qituvchilik;
- tarbiyachilik;
- o'quv-metodik;
- ilmiy-tadqiqot.

Bakalavr tayyorlanadigan kasbiy faoliyatning muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim tizimi tomonidan aniqlanadi.

4.4 Bakalavrlar kasbiy faoliyatining vazifalari

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr o‘z psixologik-pedagogik, kasbiy tayyorgarligiga muvofiq quyidagi kasbga oid faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi mumkin:

- **o‘qituvchilik**: akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, umumta‘lim maktablarida o‘zbek tili va adabiyoti, eski o‘zbek tili va yozuvi fani o‘qituvchisi;

- **tarbiyachilik**: maktabdan tashqari muassasalarda faoliyat;

- **o‘quv-metodik**: ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha ta‘limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist;

- **ilmiy-tadqiqot**: o‘quv jarayoni bilan bog‘liq jarayonni o‘rganuvchi ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi mumkin.